

Yangi aviaqatnov - yangi imkoniyatlar

2022 11 Oktabr

So'nggi paytlarda Uzbekistan Airways aviakompaniyasi ko'plab xalqaro va mahalliy yo'nalishlarda yangi muntazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'ydi va ushbu yo'nalishdagi harakatlar hali hamon davom ettirilmoqda. Bularning barchasi yo'lovchilarga qulaylik va keng imkoniyatlar yaratish ustidagi olib borilayotgan ishlardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, aviakompaniya yana bir yangi Farg'ona - Dubay - Farg'ona yo'nalishida muntazam aviaqatnovlarni joriy etmoqda. Ushbu aviaqatnov joriy yilning 30-oktabridan boshlab haftaning seshanba va yakshanba kunlari quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

Farg'onadan jo'nab ketish: 08:40

Dubayga yetib borish: 11:35

Dubaydan jo'nab ketish: 13:05

Farg'onaga yetib borish: 17:40

Farg'ona - Dubay yo'nalishidagi chiptalar narxi 2 215 042 so'mdan, Farg'ona - Dubay - Farg'ona yo'nalishidagi aviachiptalar narxi esa 3 640 744 so'mdan boshlanadi.

Shuningdek, Uzbekistan Airways joriy yilning 31-oktabridan boshlab Toshket - Sharja - Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar sonini ko'paytirmoqda. Parvozlari haftaning dushanba, payshanba va shanba kunlari quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

Toshkentdan jo'nab ketish: 06:45

Sharjaga yetib borish: 09:20

Sharjadan jo'nab ketish: 10:50

Toshkentga yetib borish: 15:00

Toshkent – Sharja yoʻnalishidagi aviachiptalar narxi 1 976 630 soʻmdan, Toshket – Sharja – Toshkent yoʻnalishidagi aviachiptalar narxi esa 3 163 920 soʻmdan boshlanadi.

Aviachipta narxlari 11-oktabr holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, avia